# Muammo, murojaat va yechim: Chegara mahallasida aholi muammolari oʻrganildi



Muammo, murojaat va yechim: Chegara mahallasida aholi muammolari oʻrganildi

Bugun Termiz shahar hokimi Oʻktam Toʻrayev aholi muammolarini oʻrganish, murojaatlarini joyida tinglash, koʻtarilgan masalalarni hal etish maqsadida "Chegara" mahallasi fuqarolari uchun hududdagi 21-sonli maktab binosida sayyor qabul oʻtkazdi.

Unda sektor rahbarlari, hokim oʻrinbosarlari, aloqador korxona va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etishdi. Murojaatlar asosan imtiyozli davolanish, uy-joy taʼmiri, moddiy yordam, uy-joy uchun subsidiya olish, arxitektura va kommunal sohaga oid masalalarda boʻldi.

Sayyor qabul davomida 25 nafar fuqaroning murojaati oʻrganildi. Murojaatlarining bir qanchasiga shu yerning oʻzida ijobiy yechim topildi. Har bir murojaat masʼullar

ishtirokida tinglanib hal etish chorasi koʻrilmoqda, ayrim murojaatlarga huquqiy tushuntirish berilayotgan boʻlsa, ijrosi qoʻshimcha oʻrganish va boshqa masalalar bilan bogʻliq murojaatlar tegishliligi boʻyicha mutasaddilarga yoʻnaltirilib, ijrosi nazoratga olindi.





Image not found or type unknown







Image not found or type unknown



Image not found or type unknown